


Bajarilishi ikki yilga mo'ljallangan amaliy loyihalar mavzusi

“Qishloq xo‘jaligi” yo‘nalishi

№	Amaliy loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
	Molekulyar markerlarga asoslangan seleksiya asosida suv kam talab qiluvchi va don sifati yuqori bo'lgan sholining yangi duragay, tizma va navlarini yaratish 	Tadqiqotning shakli: Amaliy. Ilmiy-tadqiqot natijalari: - markerlarga asoslangan seleksiya (MAS) usullari orqali geografik kelib chiqishi turlicha bo'lgan kolleksion genotiplarning qimmatli-xo'jalik belgilari va molekulyar markerlar o'rtasidagi aloqadorligi baholanadi; - “speed breeding” texnologiyasidan foydalanib fitotron va sun'iy o'stirish kamerasi (Growth chamber)da kuz-qish mavsumida ham duragay avlodlarni ekish orqali seleksiya jarayoniga ketadigan vaqtni 2-martaga qisqartirishga erishiladi; - MAS va tabiiy muhitdagi sinovlar asosida yaratilgan duragay avlodlarda yakka tanlovlar o'tkazilib suv kam talab qiluvchi va don sifati yuqori bo'lgan navlar yaratiladi; - yaratilgan navlar Davlat nav sinash komissiyasiga topshiriladi. Natijalarni sinovdan o'tkazish: Tadqiqot natijalari Qishloq xo'jaligi vazirligi tasarrufidagi tashkilotlarda sinovdan o'tkaziladi. Ilmiy natijalarni chop etish: Tadqiqot natijalariga intellektual mulk obyektlari uchun tegishli hujjatlar olinadi. Nufuzli ilmiy jurnallarda va Web of Science hamda Scopus ma'lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda ilmiy maqolalar chop etiladi. Izoh: Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar Qishloq xo'jaligi vazirligining qo'llab-quvvatlash xati mavjud bo'lganida qabul qilinadi.